

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH

**HAYOT YOKI SOG‘LIQ UCHUN XAVFLI JINOYATLARNING
JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Xaydarov Shuxratjon Djumayevich

Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini3

Хайдаров Шухратжон Джумаевич

Уголовно-правовые и криминологические аспекты преступлений, опасных для жизни или здоровья.....29

Khaydarov Shukhratjon Djumayevich

Criminal law and criminological aspects of crimes dangerous to life or health.....59

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

List of published works.....64

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH

**HAYOT YOKI SOG'LIQ UCHUN XAVFLI JINOYATLARNING
JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Yu193 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “Ziyonet” Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ne‘matov Jasur Aminjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor

Turg‘unboyev Elbekjon Odiljonovich
yuridik fanlar doktori (DSc)

Ibrohimov Jamshid Abdug‘ofur o‘g‘li
yuridik fanlar doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 6-mart soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1358-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 20-fevraldagi 42-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.Q.O‘razaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

N.S. Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda inson hayoti va sog‘lig‘ini jinoyat-huquqiy vositalar yordamida muhofaza qilish eng muhim ijtimoiy-huquqiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, noqonuniy abort, tanosil yoki OIV/OITSni tarqatish, inson a‘zolari va to‘qimalarini transplantatsiya qilishga majburlash, xavf ostida qoldirish hamda kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jiddiy tibbiy, huquqiy muammolarga, ijtimoiy diskriminatsiyaga olib kelmoqda. JSST (WHO) ma‘lumotlariga ko‘ra har yili 73 mln.dan ortiq majburiy abort amalga oshirilsa, ularning 45 foizi sanitariyaga qarshi sharoitlarda o‘tkazilishi oqibatida turli infeksiyalar, qon ketishi bilan kechadi. Bu kabi xavfli abortlar onalar o‘limining 4,7–13 foizini tashkil etadi¹. OIV/OITS yuqtirilishida 70 foiz jabrlanuvchilar o‘smirlar hissasiga to‘g‘ri keladi². Mazkur holatlar tibbiy tizimga yuklamani oshirib, tibbiy resurslar cheklanishiga, epidemiya yoki pandemiya xavfiga, pirovardda esa demografik inqirozga sabab bo‘lmoqda. Shu jihatdan ham ushbu turdagi qilmishlarning oldini olish, aholi orasida tibbiy madaniyatni yuksaltirish va OIV/OITSga chalinganlarning huquqlarini himoya qilish, inson hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Jahonda shaxsning hayoti hamda sog‘lig‘ini muhofaza qilish, uning reproduktiv salomatligiga oid huquqlarini kafolatlash, turli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, malakali tibbiy xizmat ko‘lami va qamrovini kengaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlarning rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy barqarorlik va kriminogen vaziyatga ta‘sirini kamaytirish, mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha zamonaviy chora-tadbirlarni joriy qilish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlarni ijtimoiy munosabatlar keskin o‘zgarayotgan bugungi sharoitda tadqiq etish, mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini aniqlash, bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik choralari jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatdan tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlarga qarshi kurashish davlat jinoyat-huquqiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jinoiy abort uchun javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish, tibbiy sug‘urtalash tizimini joriy qilish³, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta‘minlashga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini “bir qadam” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish, insonni undan a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashni kriminalizatsiya qilish, tizimda korrupsiyani qisqartirish maqsadida ichki nazorat mexanizmlarini

¹ <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/abortion>

² <https://www.who.int/southeastasia/activities/adolescent-sexual-reproductive-health>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

takomillashtirish tibbiyot sohasini isloh qilish hamda jinoyat qonunini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Keltirilgan ushbu vazifalar tibbiy madaniyatni yuksaltirishni ta‘minlash, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlarga qarshi kurashish hamda bu borada jinoyat qonunini qo‘llash amaliyotini yaxshilash masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi 265-I-son “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”, 2013-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-353-son “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi O‘RQ-768-son “Inson a‘zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta‘minlashga mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar institutini qo‘llashga oid qonunchilikni hamda bu boradagi amaliyotni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC), Johns Hopkins University, Northwestern University, Boston University School of Medicine, University of Missouri-Kansas City, Duke Law School (AQSh), University of Kentucky (Buyuk Britaniya), Trinity College (Irlandiya), Sapienza University of Rome (Italiya), University of Coimbra (Portugaliya), Sultan Agung Islamic University (Indoneziya), Jadara University (Iordaniya), University of Silesia (Polsha), University of Split (Xorvatiya), University of Macau (Xitoy), Moskva davlat universiteti (RF) kabi xalqaro, ilmiy va ta‘lim muassasalarida amalga oshirilmoqda.

Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar institutini takomillashtirishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini o‘rganishga oid tadqiqotlarda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, tibbiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo‘lmagan abortni jinoyat deb tan olishning asosiy mezonlari (Johns Hopkins

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.indstate.edu>, <https://www.cornell.edu>, <https://www.sulc.edu>, <https://case.edu>, <https://www.law.miami.edu>, <https://nij.ojp.gov>, <https://www.ox.ac.uk>, <https://www.cam.ac.uk>, <https://www.htwk-leipzig.de/en/htwk-leipzig>, <https://css.ethz.ch/en>, <https://www.unipi.it>, <https://www.ugr.es>, <https://www.kansai-u.ac.jp>, <https://english.tau.ac.il>, <http://www.ict.org.il>, <https://www.msu.ru>, <http://www.bolashaq.edu.kz>

University (AQSh), jinoiy abortning reproduktiv salomatlikka ta'sirini baholash (University of Missouri-Kansas City (AQSh), Sultan Agung Islamic University (Indoneziya), hayot yoki sog'liq uchun xavfli qilmishlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy vositalarini rivojlantirish (Duke Law School (AQSH), Jadara University (Iordaniya), aldov yo'li bilan transplantatsiyaga ko'ndirishni jinoyat sifatida e'tirof etish zarurati (Trinity College (Irlandiya), zo'rlik ishlatib sodir etilayotgan hayotga yoki sog'liqqa qarshi jinoyatlarda jabrlanuvchining viktim xulq-atvorining roli (University of Kentucky (AQSh), tibbiyot xodimlarining bemorlarning hayoti va sog'lig'i uchun mas'uliyatini oshirish va javobgarlik choralarini takomillashtirish zarurati (University of Silesia (Polsha), tibbiyot xodimlarining bemorning hayoti yoki sog'lig'ini xavf ostiga qo'yuvchi harakatlari uchun javobgarlikni takomillashtirish (University of Coimbra (Portugaliya), University of Macau (Xitoy), xavf ostida qoldirish natijasida oqibat kelib chiqmasa-da jinoyatni tamom bo'lgan deb topish zarurati (Moskva davlat universiteti (RF) mavzulari bo'yicha xulosalar shakllantirilgan va asoslantirilgan¹.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari, ularning oldini olish masalalari milliy miqyosda Yu.M. Karaketov, R. Kabulov, M.X. Rustambayev, R.A. Zufarov, Q.R. Abdurasulova, N.S. Salayev, S.S. Niyozova, F. Toxirov, A.A. Otajonov, X.M. Abzalova, M.K. O'razaliyev, A.S. Yakubov, M.M. Kadirov, B.J. Axrarov, E.O. Turg'unboyev, S.R. Davletmuratov va boshqalar ilmiy ishlarida o'rganilgan.

MDHga a'zo davlatlar olimlari tomonidan mazkur masalaning ayrim jihatlari X.X. Absatarov, D.M. Adilin, N.A. Babiy, Ye.V. Bezruchko, Yu.A. Vlasov, A.T. Gaynazarov, M.A. Gorbatoeva, Z.M. Guseynova, D.V. Davtyan, K.V. Dyadyun, Yu.A. Jdanov, A.A. Ivanova, N.V. Ivantsova, O.I. Ilyanova, V.A. Kazakova, M.V. Kiseleva, T.Yu. Kobozeva, Ye.V. Korotkih, V.A. Krasnikov, P.N. Levin, V.I. Morozov, Ye.N. Moskaleva, S.E. Mustafaev, A.G. Mustafa-zade, Ya.A. Mits, L.M. Nazmutdinova, Yu.S. Norvartyan, I.A. Podroykina, Sh.M. Rashidov, L.V. Serdyuk, T.A. Serikbaev, D.A. Trofimova, N.V. Tidikova, T.A. Fabrika, M.V. Xabarova, S.M. Xramov, A.A. Chugunov, A.S. Yakimenkolarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Xorijiy olimlar A. Farajirad, Z. Radmehr, M. Darkxor, B. Xolmes, R. Losina, P. Rochelle, Ya. Yazdan, A. Fridberg, J. Jerrard, N. Johanna, V. Tornton, J. Zorza, A. Shnurlar hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarni u yoki bu darajada ilmiy jihatdan o'rganishgan².

Ushbu tadqiqot mavzusining ayrim jihatlari muallif tomonidan 2019-yilda amalga oshirilgan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi³ doirasida ham tahlil qilingan bo'lib, unda bildirilgan ayrim fikr va mulohazalar ma'lum darajada mazkur tadqiqot ishining taalluqli qismlarida yanada takomiliga yetkazildi.

¹ <https://www.jhu.edu/>, <https://www.umkc.edu/>, <https://unissula.ac.id/>, <https://law.duke.edu/>,
<https://www.jadara.edu.jo/eng/>, <https://www.trincoll.edu/>, <https://www.uky.edu/>, <https://us.edu.pl/en/>,
<https://www.uc.pt/en/>, <https://www.um.edu.mo/>, <https://msu.ru/>

² Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

³ Xaydarov Sh.Dj. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari: Yurid. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – T.: TDYU, 2019. – 49 b.

Biroq, ijtimoiy munosabatlarning bugungi kun rivojida hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari, unga doir muammolar va ularni hal etish masalalari alohida monografik tadqiqot sifatida o'rganilmaganligi mazkur sohada ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini tug'diradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlar rejasidagi "Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini isloh qilish muammolari", "Globallashtirish sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish muammolari", "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarni kompleks yuridik jihatdan ochib berish, ularning o'ziga xos belgilarini aniqlash hamda mazmun mohiyatini tushunish bo'yicha ilmiy yondashuvni ishlab chiqish, ularning kriminologik xususiyatlarini yoritish, huquqni qo'llash amaliyotini, jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarini retrospektiv tahlil qilish;

hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar tushunchasi, ijtimoiy xavfliligi, javobgarlik belgilanishi zaruratini aniqlash;

ayrim xorijiy davlatlarda shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlar uchun jinoyat javobgarlikni qo'llash masalalarini tadqiq qilish;

o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish va tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish jinoyatlarini yuridik tahlil qilish;

jinoiy ravishda homila tushirish (abort), ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash va insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatlarini tahlil qilish;

kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlarini yuridik tahlil qilish;

hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va o'xshash jinoyatlardan farqlash masalalarini o'rganish;

hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning og'irlashtiruvchi belgilarini tahlil qilish;

hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini o'rganish;

shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsining kriminologik tavsifini yoritish;

shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlarning oldini olish muammolarini tahlil qilish orqali ularning yechimlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari belgilovchi ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli

jinoyatlarni sodir etish natijasida yuzaga keladigan jinoyat-huquqiy va kriminologik munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti, statistik materiallar, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, yuridik fanda mavjud kontseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishining uslubiy asosini jinoyat huquqining asosiy tamoyillari tizimini tashkil etgan ilmiy tamoyillar hamda qiyosiy-huquqiy, tarixiy-sotsiologik, tizimli tahlil, kuzatuv, umumlashtirish, tasniflash, dialektik, mantiqiy, formal-huquqiy, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

transplantatsiya maqsadida insonning a'zolari va to'qimalarini berishga rozi qilishga majbur qilganlik uchun javobgarlik belgilanishi haqidagi qoidani zaruriyati borligi sababli qonun normasi sifatida mustahkamlanishi lozimligi asoslangan;

ayolning o'z homilasini sun'iy tushirishga majburlashning ijtimoiy xavfi yuqoriligi sababli jinoyat uchun jazo choralarini kuchaytirish zarurati asoslangan;

mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam mazmuniga aralashishning ta'qiqlanishi lozimligi haqidagi qoidani sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish kerakligi sababli qonun normasi sifatida mustahkamlash lozimligi asoslangan;

atraksionni foydalanishga topshirishdan oldin uni montaj qilishda (yig'ishda, o'rnatishda) xavfsizlikni ta'minlash uchun talablarni, shu jumladan, atraksionlarni o'rnatishda ekspluatant asoslanishi kerak bo'lgan tamoyillarni belgilab berish hamda ekspluatant atraksionlarni kunlik va yillik tekshirishlarni, shuningdek ekspluatatsiya hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi tekshirishlarni amalga oshirishini mustahkamlash lozimligi asoslangan;

tanosil kasalligini tarqatganlik hamda OIV kasalligi/OITSni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlikni ushbu kasalliklar ijtimoiy xavfi turlicha bo'lganligi sababli alohida normada differentsiatsiya qilinishi lozimligi asoslangan;

tibbiyot xodimining kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi uchun jinoiy javobgarlikni aniqlash va sud amaliyotida kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli xildagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish zaruriyati sababli alohida normada differentsiatsiya qilinishi lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tirik donorni undan a'zosini va (yoki) to'qimalarini olish uchun rozilik berishga majburlash taqiqlanishi haqidagi qoidani qonun normasi sifatida mustahkamlash zarurati asoslangan;

inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi vaqtida retsipientni va donorni sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqidagi ogohlantirish, shuningdek transplantatsiya jarayoni videoyozuvi tibbiyot muassasasi tomonidan arxivlashtirilishi, videoyozuv aslining dublikati esa saqlash uchun ichki ishlar organlariga topshirilishi lozimligi asoslangan;

insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatining zaruriy belgisi sifatida zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lishini belgilash zarurati asoslangan;

boshqarish qoidalarini buzgan shaxs tomonidan ayni paytda jabrlanuvchiga yordam ko'rsatmaslik JK 298-moddasi dispozitsiyasi doirasidan tashqariga chiqishi va JK 117-moddasi bilan qo'shimcha tavsiflashni talab qilishi lozimligi asoslangan;

shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishni oilaviy (maishiy) ruhiy zo'ravonlik turi sifatida badanga shikast yetkazish jinoyatlaridan farqlash lozimligi asoslangan;

JK 115-moddasida jinoyatni sodir etish usuli sifatida "*aldash*"ni, shuningdek qilmish natijasida "*og'ir oqibatlarining kelib chiqishi*" differentsiatsiya qilinishi maqsadga muvofiqligi asoslangan;

inson tanasining boshqa qismlarini ham jinoyat-huquqiy muhofaza ostiga olish uchun zarur huquqiy baza yaratish maqsadida JK 115¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat predmetini kengaytirish lozimligi asoslangan;

JK "Tibbiyot xodimlarining kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmasligi" nomli yangi 116¹-modda bilan to'ldirish lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlarning qonunni qo'llash tajribasi yuzasidan tadqiqot natijalari o'rganilgan, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan (500 nafar sud-tergov amaliyoti xodimlari orasida), 2019–2024 yillardagi statistik ma'lumotlar va 210 ta jinoyat ishlari bo'yicha sud hukmlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Jinoyat huquqi" va "Kriminologiya" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi hamda uning natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati uning asosida olingan taklif va tavsiyalardan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq qonun ijodkorligi jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda, oliy yuridik ta'lim muassasalarida "Jinoyat huquqi" va "Kriminologiya" fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga doir masalalarni tadqiq etishning ilmiy natijalari asosida:

transplantatsiya maqsadida insonning a'zolari va to'qimalarini berishga rozi qilishga majbur qilganlik uchun javobgarlik belgilanishi haqidagi qoidani zaruriyati borligi sababli qonun normasi sifatida mustahkamlash to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 23-iyundagi O'RQ–780-son "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi 3-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining

2024-yil 13-martdagi 01/q-08-35-son dalolatnomasi). Mazkur taklif inson a'zosini va (yoki) to'qimalarini olish ixtiyoriy amalga oshirilishi va bunga majburlash qonunga xilof ekanligini belgilashga xizmat qilgan;

ayolning o'z homilasini sun'iy tushirishga majburlashning ijtimoiy xavfi yuqoriligi sababli jinoyat uchun jazo choralarini kuchaytirish to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-son "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi 10-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-martdagi 01/q-08-35-son dalolatnomasi). Mazkur taklif ayolning o'z homilasini sun'iy tushirishga majburlash jinoyati uchun jazo choralarini kuchaytirish orqali majburlash qonunga xilof ekanligini belgilashga xizmat qilgan;

mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam mazmuniga aralashishning ta'qiqlanishi lozimligi haqidagi qoidani sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish kerakligi sababli qonun normasi sifatida mustahkamlash haqidagi qoidani qonun normasi sifatida mustahkamlash to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-yanvardagi O'RQ-815-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-martdagi 01/q-08-35-son dalolatnomasi). Mazkur taklif mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam mazmuniga aralashishning ta'qiqlanishi qonunga xilof ekanligini belgilashga xizmat qilgan;

atraksionni foydalanishga topshirishdan oldin uni montaj qilishda (yig'ishda, o'rnatishda) xavfsizlikni ta'minlash uchun talablarni, shu jumladan, atraksionlarni o'rnatishda ekspluatant asoslanishi kerak bo'lgan tamoyillarni belgilab berish hamda ekspluatant atraksionlarni kunlik va yillik tekshirishlarni, shuningdek ekspluatatsiya hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi tekshirishlarni amalga oshirishini mustahkamlashga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-noyabrdagi 677-son qarori bilan tasdiqlangan "Attraksionlar xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament"ning 77 va 84-bandlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 1-martdagi 12-15-18-son dalolatnomasi). Mazkur taklif inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va kasb majburiyatlarini aniq belgilab berishga xizmat qilgan;

tanosil kasalligini tarqatganlik hamda OIV kasalligi/OITSni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlikni ushbu kasalliklar ijtimoiy xavfi turlicha bo'lganligi sababli alohida normada differentsiatsiya qilish lozimligi to'g'risidagi taklifdan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasining 144 va 145-moddalarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 14-oktabrdagi 27/2-241-22-son dalolatnomasi). Mazkur taklif boshqa shaxsni tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki

unga yuqtirganlik uchun jinoiy javobgarlikni differentsiatsiya qilinishiga xizmat qilgan;

tibbiyot xodimining kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi uchun jinoiy javobgarlikni aniqlash va sud amaliyotida kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli xildagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish zaruriyati sababli alohida normada differentsiatsiya qilish lozimligi to'g'risidagi taklifdan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasining 150-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 14-oktabrdagi 27/2-241-22-son dalolatnomasi). Mazkur taklif tibbiyot xodimining kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi uchun jinoiy javobgarlikni differentsiatsiya qilinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 24 ta ilmiy maqola (ulardan 4 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, o'n beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning obyekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik tushunchasi va umumiy tavsifi**" deb nomlanib, unda hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining retrospektiv tahlili, ushbu turdagi jinoyatlar tushunchasi, ijtimoiy xavfliligi, javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zarurati hamda ayrim xorijiy davlatlarda hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Ma'lumki, hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarga doir jinoiy javobgarlik masalasi jamiyatdagi, tibbiyotdagi eng qadimgi masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, homila tushirish (abort) haqida to'xtalganda, Gippokrat qasamyodi ham homilani tushirishni taqiqlagan ("Men ... hech qanday ayolni abortiv pessariyaga mahkum etmayman"). O'z navbatida Aristotel abortga yo'l qo'yish

mumkin, deb hisoblagan. Qadimgi Rimda ham abortga nisbatan cheklov bo'lmagan, faqatgina uning keyingi davrida Rim imperiyasining harbiylarga bo'lgan ehtiyoji oshib ketgandan so'ng abort taqiqlanib, jazolanishni boshlagan. Rim huquqida dastlab homila inson tanasining bir qismi ("pars viscerum") sifatida ko'rilgan, shu bois ham homilani sun'iy ravishda tushirgan ayollar jazoga tortilmagan. Keyinchalik esa, homila ("nasciturus" – tug'ilmoqchi bo'lgan) muayyan fuqarolik huquqlariga ega bo'lgan. Qadimgi Gretsiya va Rimda homila tushirish ta'qib qilinmagan va ushbu jarayon davlat tomonidan nazorat qilinmagan. Faqatgina Peruda abort to'liq taqiqlangan, uning uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan.

VII asrda esa, Konstantinopol cherkovida abort uchun o'lim jazosi belgilangan. Katolik cherkovi abort qildirgan ayolni qotilga tenglashtirgan. XVII asrda homila tushirish uchun bir qator Yevropa mamlakatlarida ham o'lim jazosi joriy qilingan. Homila tushirishning yakuniy taqiqlanishi xristianlik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Xristianlikning dastlabki davridayoq abort og'ir gunohga – insonni, o'z qarindoshini o'ldirishga tenglashtirilgan va o'lim jazosi joriy etilgan, keyinchalik katorga ishlari va turma qamog'i bilan almashtirilgan. Islom dinida ham homila tushirish man etilgan, bunday tibbiy aralashuv Allohning irodasiga qarshi ketish, insoniylikka zid harakat sifatida baholanadi.

Shu bilan birga musulmon davlatlarida ham abort to'liq taqiqlanmagan, bunda unga ruxsat beriladi, faqat umumiy taqiqlar bo'ladi, masalan, homila 120 kundan oshgandan so'ng abortga yo'l qo'yilmaydi va h.k. Shuningdek, Xammurapi qonunlariga ko'ra, "Agar quruvchi ma'lum haq evaziga biror odamga uy qurib bersa-yu, qurilgan uy mustahkam bo'lmay buzilib ketsa, natijada uy egasining quli o'lsa, bunda quruvchi qul uchun qul bergan" (231-m.). Imorat qurgan quruvchi bunday imoratning buzilishi yoki bosib qolishi natijasida uy xo'jayini o'lsa, quruvchi ham o'limga mahkum etilgan (229-m.). Xammurapi qonunlarida shifokorlarning xatosi uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan.

Qadimgi Rimning XII jadval qonunlari VII jadvaliga muvofiq, agar biror kishiga zarar yetkazilsa va jabrlanuvchi rozi qilinmasa, o'sha shaxsning o'ziga ham shunday jarohat yetkazilishi, agar erkin odamning qo'li yoki barmog'idagi suyakni sindirsa, o'sha shaxs jabrlanuvchiga 300 ass jarima to'lashi lozim bo'lgan. Manu qonunlarida (Hindiston, miloddan avvalgi II asr) muayyan kasb egasining ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan jinoyati uchun javobgarlik to'g'risida umumiy bir norma mavjud bo'lgan.

Rim huquqida ham "shifokor xatosi" tushunchasi tajribasizlik, ehtiyotsizlik va beparvolikni o'z ichiga olgan. Rim huquqida og'ir kasallikka chalingan bemorning o'lishi mumkinligi nazarda tutilgan. Qasddan odam o'ldirish, birovni zaharlab o'ldirish maqsadida zahar sotganlik, homila tushirish va axtalash uchun shifokor boshqa har qanday fuqaro kabi jazoga tortilgan.

Ilk o'rta asrlarda kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlik muayyan kasb vakillarining harakatlari xususiyatiga va ularga bo'lgan subyektiv munosabatga qarab tabaqalashtirilgan.

931 milodiy (319 hijriy) yilda Xalifa Muqtadir zamonida ayrim tabiblarning xatosi tufayli bir odam vafot etadi. Shunda xalifa Bag'dodning hamma tabiblarini qaytadan imtihon qilishga buyruq beradi. Ularni Bag'dodning bosh tabibi Sinon ibn Sobit imtihon qiladi. Bag'dodning o'zida imtihon qilingan tabiblarning soni

864 taga yetadi. Bunga imtihon qilinmagan mashhur tabiblar, xalifa, vuzaro va umaroning tabiblari kirmagan.

Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarning rivojlanishi Oʻzbekistonda 1926, 1959 va 1994-yillarda qabul qilingan jinoyat qonunchiligidagi javobgarlik masalalari qiyosiy tahlil qilingan hamda ularning oʻziga xos xususiyatlari aniqlangan. Jumladan, 1926-yilgi JK 1936-yil 25-sentabrda xotin kishini abort qildirishga majbur etish haqidagi 190¹-modda bilan toʻldirilgan.

Dissertant, shuningdek 1959-yilgi OʻzSSR JKda hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlar uchun javobgarlik alohida bobda belgilanmaganligini qayd etgan. Unga koʻra 1926-yilgi OʻzSSR JKga nisbatan birmuncha tizimlashtirilib, aniqlashtirilgan, tanosil kasalligini yuqtirish, kasallikdan majburiy davolanishdan bosh tortganlik uchun ham jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. 1994-yilgi JKda “Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlar” alohida bobda jamlangan. 2010-yil 24-maydagi OʻRQ-248-son Qonuni bilan shaxsning kasb yuzasidan oʻz vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi ogʻirlashtiruvchi holat sifatida kiritilgan boʻlsa, 2022-yil 23-iyundagi OʻRQ-780-sonli Qonuniga asosan insonni undan aʼzolarini va (yoki) toʻqimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlanganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutildi.

Dissertant qayd etishicha jinoyat-huquqiy adabiyotlarda inson hayoti va sogʻligʻiga xavf soluvchi jinoyatlar turlicha talqin etilgan. Masalan, mualliflar tomonidan ushbu jinoyatlar jabrlanuvchining hayotga boʻlgan huquqiga, boshqa shaxsning xavfsizligini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlarga, hayot xavfsizligi shart-sharoitlariga tajovuz qilishi taʼkidlangan. JK Maxsus qismining III bobida hayot yoki sogʻliq uchun xavfli 7 ta jinoyat hamda 21 ta jinoyat tarkibi, shundan 12 ta ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan, 7 ta uncha ogʻir boʻlmagan hamda 2 ta ogʻir jinoyat tarkiblari nazarda tutilgan.

Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlarning oʻziga xosligi shundaki, ular inson hayoti yoki sogʻligʻiga ehtimoliy real zarar yetkazishi mumkinligi bilan bir qatorda ushbu jinoiy xatti-harakatlarni sodir etishning shart-sharoitlari, joyi, vaqtini tavsiflovchi ijtimoiy munosabatlar buziladi. Masalan, noqonuniy abort qilish orqali jabrlanuvchi oʻlimiga sabab boʻlish mamlakatda tugʻilish holatiga taʼsir qiladi, demografik darajani pasaytiradi yoki insonni undan aʼzolarini va (yoki) toʻqimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash shaxsning oʻz tanasidan erkin foydalanishiga toʻsqinlik qiladi.

Tahlillar asosida dissertant *hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlar tasnifini* ishlab chiqqan hamda ushbu jinoyatlarni *obyekti; subyekti; jinoyatni sodir etish usuliga koʻra* tasniflagan.

Dissertant tadqiq etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini quyidagilar bilan izohlagan: Konstitutsiyaning 48-moddasida belgilangan har kimning sogʻligʻini saqlashga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqiga tajovuz qilishi, mazkur jinoyatlardan ayrimlarining ommaviy xususiyat kasb etishi, (2020-yilda 817 kishi, 2021-yilda 3289 kishi, 2022-yilda esa 3889 kishi OIV/OITSGa chalingan); mazkur jinoyatlarning ayrimlari kasbiy faoliyat bilan bogʻliq boʻlgani bois jabrlanuvchilarning davlat organlari faoliyatiga nisbatan ishonchsizlik tugʻilishi va boshq.

Xorijda hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar tizimiga inson ustida noqonuniy tajribalar o‘tkazish (Qirg‘iziston, Armaniston, Ozarbayjon, Ukraina), transplantatsiya sohasidagi jinoyatlar (Gruziya, Belarus, Qirg‘iziston, Tojikiston, Armaniston, Ozarbayjon, Ukraina) kiritilgan. Masalan, Gruziyada inson a‘zo va to‘qimalari bilan noqonuniy savdo qilish, ularni noqonuniy eksport yoki import qilish, genetik manipulyatsiya kabi harakatlar hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar tizimiga kiritilgan. Xorijiy mamlakatlarda o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitishda zo‘rluk darajasi aniqlashtirilgan ya‘ni har qanday zo‘rluk emas, balki og‘ir tan jarohati yetkazish bilan qo‘rqitish javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilangan (Belarus, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Moldova).

Xavf ostida qoldirish bilan bir qatorda jabrlanuvchiga g‘amxo‘rluk ko‘rsatishi majburiyatiga ega bo‘lmagan, jabrlanuvchini hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli ahvolga solmagan umumiy subyekt tomonidan sodir etiladigan yordam ko‘rsatmaslik jinoyati uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Bunda yordam ko‘rsatmaslik yoki alohida jinoyat tarkibi (Qirg‘iziston, Gruziya, Ukraina) yoxud xavf ostida qoldirish jinoyatining bir qismi (Belarus) sifatida ko‘zda tutilgan.

Xorijiy mamlakatlarda xavf ostida qoldirish formal tarkibli jinoyat sifatida nazarda tutilgan bo‘lib, bunda oqibat kelib chiqishi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida ko‘zda tutilgan (Gruziya, Qirg‘iziston, Belarus, Armaniston, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Ozarbayjon, Ukraina, Moldova). Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitishning ijtimoiy xavfli usulda (Estoniya, Belarus, Qozog‘iston va Estoniya), bir guruh shaxslar tomonidan sodir etish (Ukraina, Qirg‘iziston), tizimli ravishda sodir etish (Litva), quroldan foydalangan holda sodir etish (Norvegiya, Avstriya, Koreya, Belgiya, Estoniya, Litva) kabi og‘irlashtiruvchi holatlari nazarda tutilgan. Noqonuniy abort bilan bir qatorda noqonuniy sterilizatsiya o‘tkazish uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan (Ukraina, Moldova, Gruziya, Ozarbayjon, Turkiya). Noqonuniy abortni takroran sodir etganlik uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat nazarda tutilgan (Armaniston, Qozog‘iston). Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan ayrim jinoyatlar natijasida jabrlanuvchi vafot etsa yoki mehnat qobiliyatini yo‘qolishiga olib kelgan tan jarohati olsa, uning qaramog‘idagi farzandlarini voyaga yetganiga qadar moddiy ta‘minlash tariqasidagi qo‘shimcha jazo taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlarning yuridik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish, tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish, jinoiy ravishda homila tushirish (abort), ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash, insonni undan a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash, kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlarining tarkibi tadqiq etilgan.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish jinoyati 2020-yildan boshlab, muntazam oshib kelmoqda, bu ham mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligini ko‘rsatadi. Ayrim huquqshunos olimlar o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitishni ko‘p obyektli jinoyatlar sifatida tavsiflashini qayd etib, o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish obyekti sifatida inson hayotini ko‘rsatish bahsli, deb ta‘kidlagan. Chunki, basharti, qo‘rqitish inson hayotiga tajovuz qiladigan bo‘lsa, uni JK 112-moddasi emas, balki

qasddan odam o'ldirishga suiqasd sifatida malakalash kerak bo'ladi.

“Qo'rqitish” JKning bir qator moddalarida (103, 112, 115¹, 118, 119, 126¹, 135, 141³, 147, 155, 164, 165, 235, 244, 264, 267, 277, 282-moddalar) jinoyat sodir etishning usuli sifatida ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, JKda “qo'rqitish” tushunchasiga ta'rif berilmagan. Jinoyat huquqiga oid mutaxassislar tomonidan esa, qo'rqitishga turlicha, xususan, “majburlov turi”, “jinoiy niyatning ifodasi, jinoyatni boshlashning dastlabki bosqichi”, “shaxsga ruhiy ta'sir ko'rsatish usuli”, “jinoyatni sodir etish usuli”, “ruhiy zo'rlik shakli” sifatida ta'riflar berilgan.

Dissertant qo'rqitishni uning tabiatidan kelib chiqib, ruhiy zo'rlik shakli sifatida ta'riflash lozim, degan xulosaga kelgan. Lekin uning og'zaki, yozma, imoishora shakllarida yoki uchinchi shaxslar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar orqali yetkazilishi mumkin bo'lib, bu qilmishni malakalash uchun ahamiyatga ega emas. Nazariyada va amaliyotda tahdidning realligini aniqlash muayyan murakkablik va qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Dissertant ta'kidlashicha, ayblanuvchi qo'rqitishda qilgan tahdidini amalga oshirish qasdi bor yoki yo'qligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, aynan ushbu mezon JK 112-moddasini hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlardan farqlash uchun asos bo'ladi.

JKning bir qator moddalarida (97, 98, 106, 112, 115¹, 118, 119, 120, 129, 135, 138, 141, 142, 147, 153, 155, 156, 164, 165, 166, 235, 244, 244¹, 264, 267, 267 va 282-moddalar) zo'rlik jinoyatni sodir etish usuli sifatida nazarda tutilgan bo'lsa-da, JKda zo'rlik tushunchasiga ta'rif berilmagan. Shunga ko'ra, JK 112-moddasidagi “zo'rlik” jismoniy va ruhiy zo'rlikning barcha ko'rinishlarini qamrab oladi, shu jumladan, sog'liq uchun jiddiy xavf tug'dirmaydigan (turtish, itarib yuborish, shapaloq tushirish va h.k.) zo'rlik bilan qo'rqitish ham JK 112-moddasi doirasiga tushib qoladi. Sud amaliyotini o'rganish natijasida dissertant JK 112-moddasida faqatgina “o'ldirish yoki sog'lig'iga og'ir yoxud o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish bilan qo'rqitish” uchun javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelgan.

Respublikamizda 2022-yil 45 ming kishi orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) bilan kasallanganligi, OITSGa chalinganlarning 55 foizini erkaklar va 45 foizini ayollar, 14 foizini esa 18 yoshga to'lmagan bolalar tashkil etishi aniqlangan. Bunda OITS bilan kasallanish ko'rsatkichi yuqoriligi ichki migratsiya hamda aholi sonini ko'pligi hisobiga Toshkent shahri hamda Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekistonda 2019–2024-yillarda tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish jinoyati: 2019-yilda – 24 ta (24 nafar shaxs), 2020-yilda – 89 ta (91 nafar shaxs), 2021-yilda – 94 ta (99 nafar shaxs), 2022-yilda – 110 ta (114 nafar shaxs), 2023-yilda – 154 ta (158 nafar shaxs), 2024-yilda – 188 ta (194 nafar shaxs)¹ sodir etilgan. Bu esa mazkur jinoyat 2019-yildan boshlab, muntazam oshib kelayotganini ko'rsatadi.

Dissertant ta'kidlashicha, OITSni birovga yuqtirishning iloji yo'q. Boshqa shaxsga faqat OIV kasalligini yuqtirish mumkin bo'lib, OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) OIV infeksiyasi negizida rivojlanadigan holat. OIV kasalligini yuqtirishdan toki OITSning rivojlanishigacha bo'lgan muddat o'rtacha o'n yilni tashkil qiladi. OIV kasalligi ta'siri natijasida inson organizmida CD4+

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 10-fevraldagi 07-14/25-3948-son xati

limfotsitlar miqdori pasayib ketib, OITS deb nomlangan holat kelib chiqadi, u esa, to'laqonli immunitetga ega shaxslarga ta'sir qilmaydigan har qanday virus yoki bakteriya halokatli ta'sir qiladi. Tanosil, OIV/OITS kasalligini tarqatish jinoyatining tamom bo'lgan vaqti sifatida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga real zarar yetkazish xavfini vujudga keltiradigan harakat (harakatsizlik)ni sodir etilishi tan olinadi. Boshqacha aytganda, ushbu jinoyat tarkibi tamom bo'lgan deb topilishi uchun tanosil, OIV/OITS kasalligining yuqtirilishi shart emas.

Tahlillarga ko'ra OIV/OITSni yuqtirish asosan jinsiy yo'l (97 %) orqali sodir etilgan. Lekin dissertant, 2021-yil 26-mayda ko'rib chiqilgan jinoyat ishi¹ misolida OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslar fuqaroviy nikohda jinsiy aloqada bo'lishi shaxsni OIV infeksiyasini yuqtirish xavfi ostiga qoldirgan, deb bo'lmasligini, bu holat JK 113-moddasi dispozitsiyasiga ham mos kelmasligini qayd etgan.

Dissertant tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatishning subyektini faqatgina "ushbu kasalliklarni yuqtirib olgan shaxslar" emas, balki jabrlanuvchini tanosil, OIV kasalligi yoki OITS yuqqan predmetlar bilan aloqasiga yo'l qo'ygan har qanday shaxs deb tushunadi.

Tanosil kasalliklari jinsiy yo'l bilan yuqtiriladigan kasalliklarning 25 ga yaqin turidan biri ekanligini, aksariyat xorijiy davlatlarda boshqa epidemik kasalliklarni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligini qayd etib, JK 113-moddasida boshqa xavfli yuqumli kasalliklarni yuqtirganlik uchun ham javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelgan. Bundan tashqari sud amaliyotini tahlil qilgan holda homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan hamda ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan ushbu harakatlarni sodir etishni ham og'irlashtiruvchi holat sifatida kiritish maqsadga muvofiqligini qayd etgan.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining obyektiv tomoni homilani tushirishga qaratilgan har qanday harakatlarda ifodalanadi. Jinoyat shaxs tomonidan homilani tushirish (abort)ga qaratilgan harakatlarning boshlanishi bilan bog'liq. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)da jinoyat subyektini maxsus subyekt (oliy ma'lumotli tibbiyot xodimi) bo'lishini inobatga olib, jinoyat qonunida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham qo'shimcha jazo sifatida nazarda tutilgan.

2019–2024-yillarda ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyati: 2019-yilda ish ko'rilmagan, 2020-yilda – 1 ta (1 nafar shaxs), 2021-yilda ish ko'rilmagan, 2022-yilda – 1 ta (4 nafar shaxs), 2023-yilda – 2 ta (2 nafar shaxs) sodir etilgan, 2024-yilda ish ko'rilmagan².

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda ayolning reproduktiv tanlov erkinligiga tajovuz qilinadi. Bunda majburlashning asosiy xususiyati shundaki, homilador ayolning iroda erkinligi to'liq inkor etilmaydi, balki jabrlanuvchining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklanadi, majburlanayotgan sharoitda homilador ayol o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlikdan rozi bo'ladi. Ko'p hollarda homilador ayol erkakka moddiy yoki boshqacha tarzda qaram bo'lganligi sababli uning talablariga

¹ Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yunusobod tumani sudi arxividan, 2021-yil.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 10-fevraldagi 07-14/25-3948-son xati

buysunishga majbur bo'ladi.

Tadqiqot JK 115-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan jinoyatchi subyekti va jabrlanuvchisi o'rtasida qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik munosabatlari borligini ko'rsatadi. Xususan, sudlanuvchi jabrlanuvchi bilan nikohsiz muntazam jinsiy aloqada bo'lib kelgan tanishi (53 %), uning turmush o'rtog'i yoki sha'riy nikoh asosida birgalikda istiqomat qilayotgan shaxs (33 %), jabrlanuvchining otasi, o'qituvchisi yoki qo'shnisi (14 %) bo'lgan. Dissertant JK 115-moddasi obyektiv tomondan sodir etish usuli sifatida faqatgina majburlash nazarda tutilgan. Biroq amaliyotda homilani sun'iy ravishda tushirish nafaqat majburlov, balki aldash yo'li bilan ham sodir etilishiga oid sud hukmlarini tahlil qilib, JK 115-moddasida jinoyatni sodir etish usuli sifatida "aldashni" ham kiritish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelgan.

Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning predmeti insonning har qanday anatomik materiallari emas, balki faqatgina uning a'zolari va to'qimalari bo'lishi mumkin.

Donorlikka ruhiy majburlash zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali jabrlanuvchi irodasiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, kelgusida jabrlanuvchiga har qanday og'irlikdagi jismoniy zarar yetkazish imkoniyatiga ishora qilish tushuniladi. Dissertant donorlikka aldov yoxud pul yoki sovg'a berish orqali ko'ndirishda zo'rlik yoki uni qo'llash bilan tahdid qilish bo'lmaydi, shunga ko'ra, bu harakatda JK 115¹-moddasi tarkibi bo'lmaydi, bunday harakatlarni inson sog'lig'iga tegishli shikast yetkazishga tayyorgarlik ko'rish sifatida malakalash lozim. Shunga ko'ra JK 115¹-moddasida "aldash"ni ham usul sifatida belgilash taklif etilgan.

Bundan tashqari ushbu moddada inson a'zo va to'qimalarining noqonuniy oldi-sotdisi hamisha ham oldi-sotdi bilan bog'liq bo'lmasligi, ayirboshlash, tekinga berish yoki boshqa xatti-harakatlar orqali ham sodir etilishi mumkinligi nuqtai nazaridan ham dissertant JK 115¹-moddasini yangi tahrirda qabul qilish lozimligini ilgari surgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati: 2019-yilda – 92 ta (122 nafar shaxs), 2020-yilda – 78 ta (102 nafar shaxs), 2021-yilda – 67 ta (95 nafar shaxs), 2022-yilda – 78 ta (104 nafar shaxs), 2023-yilda – 87 ta (117 nafar shaxs), 2024-yilda – 105 ta (144 nafar shaxs) sodir etilgan.

Bir guruh olimlarning "agar shaxsning kasb vazifasini lozim darajada bajarmasligiga uning yetarli bilimga ega emasligi sabab bo'lsa, bu uni sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilishga asos bo'la olmasligi"ga oid fikrlarni qo'llab-quvvatlab, kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs, qalbaki hujjatlar asosida ushbu kasbini egallagan bo'lsa ham uning qilmishini JK 116-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligini qayd etgan.

Dissertant aniqlashicha amaliyotda sudlar bunday ishlarni ko'rib chiqishda haqiqatni aniqlashga qiynaladilar, shifokorning aybdorligi yoki aybdor emasligini isbot qilish esa bundan ham qiyinroq kechadi. Shu tufayli ham tibbiyot xodimi kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarish chog'ida rasmiylashtirgan har bir hujjat o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tibbiy hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmaganlik sudlar tomonidan qarorlar chiqarishda bemor foydasiga

baholanadi.

Dissertant xavf ostida qoldirishning ijtimoiy xavfliligini uning eng ko'p sodir etiladigan jinoyat ekanligi bilan izohlagan. Jumladan, ushbu jinoyat 2019-yilda – 195 ta (197 nafar shaxs), 2020-yilda – 228 ta (237 nafar shaxs), 2021-yilda – 263 ta (275 nafar shaxs), 2022-yilda – 261 ta (271 nafar shaxs), 2023-yilda – 304 ta (313 nafar shaxs), 2024-yilda – 282 ta (293 nafar shaxs) sodir etilgan.

Xavf ostida qoldirish jinoyatida *jabrlanuvchi* uchun ikki muhim belgi xos: 1) xavf ostida qoldirish vaqtida jabrlanuvchi o'zining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan ahvolda bo'lishi, ya'ni hali tirik bo'lsa-da, sog'lig'iga har qanday zarar yetish yoki o'limiga sabab bo'lishning real tahdidi vujudga kelgan holatda bo'lishi kerak; 2) jabrlanuvchida xavf oldida o'jizligi, ya'ni o'zini vujudga kelgan xavfdan himoya qilish imkoniyatining yo'qligi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur jinoyat natijasida 37 foizida jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir, 30 foizida og'ir, 16,5 foizida yengil tan jarohati yetkazilgan, 16,5 foizi jabrlanuvchining o'limi bilan yakunlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish hamda o'xshash jinoyatlardan farqlash masalalari”** deb nomlanib, unda hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va o'xshash jinoyatlardan farqlash masalalari shuningdek, hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning og'irlashtiruvchi holatlarining jinoyat-huquqiy tavsifi tahlil qilingan.

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jami 7 ta jinoyat tarkibidan 6 tasida og'irlashtiruvchi holat nazarda tutilgan, JK 115-moddasida esa bu holat aks etmagan. Jumladan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishni jinoyat sodir etishning usuli sifatida qo'rqitish nazarda tutilgan JKning boshqa moddalaridan (103, 115¹, 118, 119, 126¹, 135, 141³, 147, 155, 164, 165, 235, 244, 264, 267, 277, 282-moddalar) ham farqlangan va JK 112-moddasi ushbu jinoyatlarga nisbatan umumiy hisoblanishi asoslantirilgan.

Dissertant fikricha og'irlashtiruvchi holatlarni jinoyat subyekti, jabrlanuvchisi va oqibatiga ko'ra uch guruhga ajratgan. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi JK 113-moddasi beshinchi qismi bilan malakalangan holda qo'shimcha ravishda JK 116-moddasi bilan malakalashni taqozo etmaydi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda majburlov usullari ham jinoyatni boshqa moddalar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish zaruratini vujudga keltirishi mumkin. Basharti, ayblanuvchi homilador ayolni sun'iy ravishda homila tushirishga majburlash uchun o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitsa, uning qilmishi JK 112 va 115-moddalari majmui bilan, sog'lig'iga tan jarohati yetkazsa esa, tegishli JK 104, 105, 109 yoki 126¹-moddalari bilan malakalanishi lozim yoki “Homilador ayol tanasining va (yoki) jinsiy a'zolarining yalang'och holdagi foto va (yoki) videotasvirini o'z ichiga olgan axborotni tarqatish bilan qo'rqitsa, qilmish qo'shimcha ravishda JK 141³-moddasi bilan ham kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslantirilgan.

Insonni uning a'zolari va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilish uchun olib qo'yishga rozilik berishga majburlash jinoyatini kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq yana bir masala jinoyatni obyektiv tomondan sodir etish usuli - majburlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdir. Sud-tergov amaliyotida

ko'tarilishi mumkin bo'lgan masalalardan biri bu majburlash, zo'rlik yoki qo'rqitish boshqa jinoyatlar tarkiblarini berganda jinoyatni kvalifikatsiya qilish masalasi hisoblanadi. Masalan, agar shaxs organ va (yoki) to'qimalarni transplantatsiya qilish uchun olib qo'yishga rozilik berishga majburlash maqsadida jabrlanuvchiga yoki uning yaqin qarindoshiga nisbatan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitsa, qilmish JK 112-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning kriminologik tavsifi”** deb nomlangan to'rtinchi bobi hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi hamda hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning oldini olish muammolariga bag'ishlangan.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyati bo'yicha 30 ta ishlarda mazkur jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlari tahlil qilinganda, ular orasida jabrlanuvchining viktim xulq-atvori, huquqqa xilof yoki aybli xatti-harakatlari (jabrlanuvchi sudlanuvchini qarzga pul olib qaytarib bermagan, haqorat qilgan) muhim o'rin tutishini ta'kidlagan (24 %). Shuningdek, o'rganish davomida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatini sodir etganlarning 45 foizi, tanosil, OIV/OITS kasalligini yuqtirish jinoyatini sodir etganlarning 68 foizi notinch oilada ulg'ayganligi aniqlangan. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishning maxsus sabablari va shart-sharoitlariga *alkogolizm* ham kiradi (13 % jinoyat aynan alkogol ichimlik ta'sirida sodir etilgan).

Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish jinoyati bo'yicha 30 ta ishlar tahlil qilinganda, mazkur jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlari sifatida oilaviy munosabatlarni saqlab qolish, spirtli ichimlik ta'siri, farzand ko'rish niyatida bo'lganligi, betartib jinsiy hayot, giyohvand moddalar iste'moliga ruju qo'yish, sevgi-muhabbat (jabrlanuvchi xabari bo'lgan va rozi bo'lgan), jinsiy ehtiyojini qondirish, jinsiy aloqa orqali pul topish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)ning sabablari va shart-sharoitlari sifatida ko'proq noqonuniy daromad topish (57 %), shu bilan birga benikoh, istalmagan homiladan qutulish, voyaga yetmagan shaxs bilan jinsiy aloqada bo'lganligini yashirish, tanishiga yordam berish, oilasining buzilib ketishiga yo'l qo'ymaslik, uylanishga majbur bo'lib qolmaslik, ota-onasini oldida uyatli bo'lib qolmaslik kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda nikoh yo'qligi sababli homiladan qutulish, uylanishga majbur bo'lib qolmaslik, jinsiy tarbiya va istalmagan homiladan himoyalaniş usullari bo'yicha bilimga ega emaslik, birinchi farzandi va keyingi homila o'rtasida muddatning qisqaligi, ishsizlik va bolani boqa olmaslik, mahalla-ko'y oldida sharmanda bo'lmaslik, jabrlanuvchining voyaga yetmaganligi tufayli jinoiy javobgarlikdan qochish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslikning sabablari va shart-sharoitlari orasida ichki mehnat qoidalariga rioya etmaslik, bemorni to'liq diagnostik tekshiruvlardan o'tkazmasdan, shifoxonaga yotqizib kuzatuvga olmasdan, amaldagi tez tibbiy yordam ko'rsatish milliy standart talablari bo'yicha tekshirish rejasini tuzmasdan, shifoxonada statsionar ravishda qo'shimcha

laborator tekshiruvlarni o'tkazmasdan, tibbiy protokollarga bepisand, vazifa hamda majburiyatlariga, o'z kasbiga nisbatan beparvolik va insofsizlik bilan munosabatda bo'lish, bemorni nazoratsiz va tibbiy yordamsiz qoldirish, bemorga nisbatan sovuqqonlik hamda e'tiborsizlik bilan qarash, bolalarni qarovsiz va nazoratsiz, yolg'iz qoldirish, tibbiy amaliyotni tegishli tahlillarini olmagan holda o'tkazish, noto'g'ri davolash muolajasini o'tkazganligini yashirish, elektr anjomini o'rnatish qoidalarini buzish va talablariga rioya etmaslik kabilar ustunlik qiladi.

Dissertant xavf ostida qoldirishning sabablari va shart-sharoitlari sifatida jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish maqsadida yo'l-transport hodisasi joyini tark etishni alohida qayd etgan. Shuningdek ular orasida *spirtli ichimlik iste'moli va mastlikni* ham alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning maxsus sabab va shart-sharoitlari tizimida *oilaviy muhit, ayniqsa, muammoli oilalarda ulg'ayayotgan bolalar bilan ishlash, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik qilish tizimidagi kamchiliklar* muhim o'rin tutmoqda.

Sud-tergov amaliyotida tibbiyot xodimlarining professional (kasbiy) xatosi (tibbiy asbob-uskuna yoki jihozni lozim darajada sterilizatsiya qilmagan, qonni tekshirmay quygan) tufayli bemorga OIV kasalligi/OITS yuqishi holatlari aniqlangan.

O'rganilgan sud hukmlari tahlili asosida dissertant quyidagilarni ilgari surgan: *o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatini* sodir etgan jinoyatchi shaxsi – erkak jinsidagi, o'rta yoshli (18 dan 35 yoshgacha), o'rta, o'rta-maxsus ta'lim darajasiga ega, oilali, doimiy ish bilan band bo'lmagan shaxslar; alokogoldan mastlik holatida sodir etilishi ulushi (53 %) yuqori. Jinoyatchi yoshi 23–30 yosh (30 %), 31–41 yosh (47 %) hamda 42–59 yoshni (23 %) tashkil etmoqda. Jinoyatchining ma'lumoti asosan o'rta, o'rta maxsus (97 %), oliy ma'lumotli jinoyatchilar ulushi (3 %) juda kamchilikni tashkil etadi;

tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsiga – erkaklar (45 %), ayollar (55 %) tomonidan ham sodir etilishi, yoshi 22–30 yosh (40 %), 31–41 yosh (37 %) hamda 42–68 yoshni (23 %); ma'lumoti asosan o'rta, o'rta maxsus (75 %) bo'lib, oliy (tugallanmagan oliy) ma'lumotli (25 %); 20 tasi (67 %) vaqtincha ishsiz;

jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsi – erkaklar (53 %), ayollar (47 %) tomonidan sodir etilishi, yoshi 22–30 yosh (27 %), 31–41 yosh (20 %) hamda 42–66 yoshni (53 %); ma'lumoti asosan o'rta, o'rta maxsus (60 %) ekanligi, oliy ma'lumotli jinoyatchilar ulushi (40 %) nisbatan kam; oilali shaxslar (83 %), turmush qurmaganlar (17 %); sudlanmaganlar ulushi (83 %);

ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsi – erkaklar (97 %), ayollar (3 %); yoshi 22–30 yosh (37 %), 31–41 yosh (30 %) hamda 42–68 yoshni (33 %); ma'lumoti asosan o'rta, o'rta maxsus (80 %) bo'lib, oliy ma'lumotli (tugallanmagan oliy) jinoyatchilar ulushi (20 %); 47 foizi oilali, 53 foizi uylanmagan / turmushga chiqmagan; sudlanmaganlar (66 %); vaqtincha ishsiz (47 %), bir guruh shaxslar ishtirokida sodir etilgan (3,3 %);

kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsi – erkaklar (53 %) va ayollar (47 %); yoshi 22–30 yosh

(13%), 31–41 yosh (37 %) hamda 42–76 yosh (50 %); oliy ma'lumotli (77 %), qisman o'rta, o'rta maxsus (23 %) ma'lumotli; 77 foiz oilali, 23 foizi uylanmagan/turmushga chiqmagan; sudlanmaganlar (83 %); bir guruh shaxslar ishtirokida sodir etilgan (13,3 %);

xavf ostida qoldirish jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsi – erkaklar (97 %) va ayollar (3 %); yoshi 22–30 yosh (67 %), 31–41 yosh (13 %) hamda 42–76 yoshni (20 %); o'rta, o'rta maxsus ma'lumotli (87 %), qisman oliy (13 %) ma'lumotli; 53 foizi oilali, 47 foiz turmush qurmagan yoki ajrashgan shaxslar; sudlanmaganlar 83 foizni tashkil etdi.

Dissertant JIEMdan ozod qilingan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi bo'yicha ishlar qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan, lekin ushbu shaxslar bilan ishlash bo'yicha faoliyatni qonun darajasida tartibga solish maqsadida "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilishni ilgari surgan.

Shuningdek, dissertant tomonidan hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning oldini olish bo'yicha umumiy chora-tadbirlar doirasida *fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan oilaviy-maishiy nizolarni hal etish* masalasiga ham e'tibor qaratish; *malakali psixologik yordam ko'rsatish tizimini* takomillashtirish; ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar organlarida psixologik faoliyatni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi buyrug'ini qabul qilish; ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni *vaqtinchalik saqlash* (oilaviy bolalar uylariga joylashtirgunga yoxud farzandlikka olinguniga qadar) uchun darhol ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni *elektron reestrga kiritilgan oilalarga patronajga topshirish* tartibini ("*fleksibl patronaj*" tizimi) joriy etish va boshqa qator takliflar asoslantirilgan.

XULOSA

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi nazariy va ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar tushunchasiga "*boshqa shaxslarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligini himoya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli va aybli qilmishlar*" degan ta'rif ishlab chiqilgan.

2. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning *obyekti* boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

3. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar *obyektiv tomondan faol harakatda* ifodalanadi, ya'ni bunda aybdor boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli bo'lgan holatlarni yaratadi, o'z harakatlari bilan boshqaning hayotini xavf ostiga qo'yadi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish; tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish; jinoiy ravishda homila tushirish (abort); ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash; insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash), shuningdek *harakatsizlikda*, ya'ni shaxsning normativ hujjatlarda bajarishi shart

qilib belgilangan muayyan harakatlarni bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, ongli va sust xulq-atvorida (kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik, xavf ostida qoldirish) namoyon bo'ladi.

4. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar *subyekt* umumiy belgilar bilan bir qatorda maxsus subyekt belgilariga ham ega bo'ladi, ya'ni tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish, jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (JK 114-m, 1-q), kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatlarida maxsus subyekt alomatlar mavjud bo'ladi.

5. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar *subyektiv tomondan* qasddan (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish; tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish (JK 113-m., 1-4-q); jinoiy ravishda homila tushirish (abort); ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash; insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash; kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-m., 2-q. egri qasd, oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik); xavf ostida qoldirish va *ehtiyotsizlikdan* (tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish (JK 113-m., 5-q.); kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-m., 1-q.) sodir etiladi.

6. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar shartli ravishda quyidagicha *tasniflanadi*:

a) *obyekti bo'yicha*: 1) hayot uchun xavfli jinoyatlar (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, jinoiy ravishda homila tushirish (abort), ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik, xavf ostida qoldirish); 2) sog'liq uchun xavfli jinoyatlar (tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish, insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash);

b) *subyekt bo'yicha*: 1) hayoti yoki sog'liq uchun xavfli, maxsus subyekt belgilariga ega bo'lmagan jinoyatlar (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish; jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (JK 114-m., 2-q.); ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash; insonni transplantatsiya qilish uchun uning a'zolari va (yoki) to'qimalarini olishga rozilik berishga majburlash); 2) hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, maxsus subyektning belgilari mavjud bo'lgan jinoyatlar (tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish; jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (JK 114-m., 1-q.); kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik; xavf ostida qoldirish);

d) *jinoyat sodir etish usuliga ko'ra*: 1) hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash, insonni transplantatsiya qilish uchun undan a'zolar va (yoki) to'qimalarni olishga rozilik berishga majbur qilish); 2) hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatmasdan sodir etiladigan jinoyatlar (tanosil kasalligi yoki OIV infeksiyasi/OITSning tarqalishi, jinoiy ravishda homila tushirish (abort), kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik, xavf ostida qoldirish).

7. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli ayrim jinoyatlarni qonunni qo'llash amaliyotida kvalifikatsiya qilishdagi xato va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan nazariy qoidalari ishlab chiqilgan, xususan:

JK 113-moddasi 5-qismi hamda 116-moddasi o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi, ya'ni: shaxs kasb yuzasidan o'z

vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi / OITS yuqtirilganda, qilmish JK 116-moddasi bilan emas, balki JK 113-modda beshinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi;

JK 116-moddasi hamda 117-moddasi o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar quyidagilarda ifodalanadi, ya'ni: JK 116-moddasining subyektivi maxsus, ya'ni kasbiga ko'ra biror majburiyatni bajarishi shart bo'lgan (116-m., 1-q.) yoki qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxslar (116-m., 2-q.) sanaladi. Ya'ni, JK 116-moddasining subyektivi JK 117-moddasi subyektiga nisbatan bir muncha tor doiradagi shaxslar sanaladi;

har ikki jinoyatning obyektivi bir xil, ya'ni inson hayoti yoki sog'lig'ining xavfsizligi ushbu jinoyatlarning obyektivi, biroq, JK 116-moddasi ikkinchi qismi jabrlanuvchisi alohida belgiga ega – kasal shaxs, 117-moddaning jabrlanuvchilar (hayoti yoki sog'lig'i xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxs) doirasi bir muncha keng doiradagi shaxslar hisoblanadi;

xavf ostida qoldirishga nisbatan xavf ostiga solib qo'yishning ijtimoiy xavfliligi yuqori hisoblanadi. Shu jihatdan, JK 116-moddasi ikkinchi qismi va 117-moddasi obyektiv tomoni bir-biriga o'xshab ketadi. Har ikkala jinoyat ham moddiy tarkibli bo'lib, jabrlanuvchiga og'ir yoki o'rtacha og'ir darajadagi shikast yetishini nazarda tutadi;

JK 116 hamda 117-moddalari obyektiv tomoni, jabrlanuvchining huquqiy holati, jabrlanuvchi va ayblanuvchi o'rtasidagi munosabatga ko'ra ham farqlanadi. Xususan, birinchidan, JK 116-moddasi obyektiv tomoni aralash harakatsizlik (ya'ni ham yordam ko'rsatadi, lekin lozim darajada bo'lmaydi), JK 117-moddasida esa, butunlay harakatsizlik (umuman yordam ko'rsatmaydi) bo'ladi; ikkinchidan, JK 116-moddasi ikkinchi qismi bo'yicha jabrlanuvchi kasal hisoblansa, JK 117-moddasi bo'yicha har qanday shaxs jabrlanuvchi bo'lishi mumkin; uchinchidan, JK 117-moddasida aybdor jabrlanuvchini shu ahvolga solgan bo'lishi lozimligi holati ham inobatga olingan, JK 116-moddasida bunday alomat mavjud emas;

muayyan kasb egalari (vrach, hamshira, quruvchi, qutqaruvchi va b.) ayni vaqtda sodir qilgan qilmishi uchun JK 116-modda tegishli qismi yoki JK 117-modda bilan javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar muayyan kasb egalari xizmat vaqtida (ish vaqtida) xizmat yo'riqnomasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan bo'lsa (yoki kasalga yordam ko'rsatmagan) uning qilmishi kelib chiqqan oqibatga qarab JK 116-moddasi, ya'ni kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Xuddi shu xodim xizmatdan tashqari holatda (ayrim vaqtlarda bevosita professional kasbiga muvofiq) shartnoma asosida (odatda og'zaki) faoliyat ko'rsatib muayyan shaxsga yordam ko'rsatmasligi oqibatida JK 117-moddada ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqsa, uning qilmishi xavf ostida qoldirish sifatida baholanadi.

II. Amaldagi jinoyat qonuni normalarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

1. JK 112-moddasidagi “zo'rlik” jismoniy va ruhiy zo'rlikning barcha ko'rinishlarini qamrab oladi, shu jumladan, sog'liq uchun jiddiy xavf

tug'dirmaydigan (turtish, itarib yuborish, shapaloq tushirish va h.k.) zo'rlik bilan qo'rqitish ham JK 112-moddasi doirasiga tushib qoladi. Shu bois ham JK 112-moddasida faqatgina "o'ldirish yoki *badanga og'ir yoxud o'rtacha og'ir shikast yetkazish bilan qo'rqitish ...*" uchun javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq.

2. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish do'pposlash yoki engil shikast yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilgan taqdirda ham ushbu harakatlar mazkur jinoyat tarkibi doirasida qamrab olishi kerak, chunki, ushbu harakatlarni sodir etar ekan, aybdor shaxsning maqsadi jabrlanuvchini qo'rqitish bo'ladi, do'pposlash yoki engil shikast yetkazish esa, ushbu maqsadga erishish vositasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan JK 112-moddasi ikkinchi qismida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatishni "*do'pposlash yoki badanga engil shikast yetkazgan holda*" sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilash taklif etildi.

3. JK 113-moddasida faqatgina "tanosil, OIV kasalligi/OITS" haqida bo'lib, shu bilan birgalikda mazkur norma tarkibiga og'ir yuqumli kasalliklar sil, tif kabilarining ham ijtimoiy xavfi yuqoriligi bois ularni ham kiritish maqsadga muvofiq. Shuning uchun JK 113-moddasida tanosil, OIV kasalligi/OITS bilan bir qatorda "*boshqa xavfli yuqumli kasalliklarni*" yuqtirish uchun ham javobgarlik belgilash taklif etilgan. Shuningdek, JK 113-moddasida "*homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan*"; "*ikki yoki undan ortiq ortiq shaxsga nisbatan*" ushbu harakatlarni sodir etishni ham javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida kiritish lozim.

4. JK 115-moddasida jinoyatni sodir etish usuli sifatida "*aldash*"ni, shuningdek qilmish natijasida "*og'ir oqibatlarining kelib chiqishi*" ushbu jinoyatning javobgarligini og'irlashtiruvchi holatlar sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

5. Inson tanasining boshqa qismlarini ham jinoyat-huquqiy muhofaza ostiga olish uchun zarur huquqiy baza yaratish maqsadida JK 115¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat predmetini kengaytirib, unga "*inson tanasining boshqa qismlari*" degan qo'shimcha kiritib, JK 115¹-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"115¹-modda. Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini, shuningdek inson tanasining boshqa qismlarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash

Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini, *shuningdek inson tanasining boshqa qismlarini* transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash, zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan bo'lsa, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;
- b) moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;
- v) *voyaga yetmagan shaxsga nisbatan*;
- g) *homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan sodir etilgan bo'lsa,*

–

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar takroran yoki xavfli residivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, –

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

6. JK 116-moddasi quyidagi mazmundagi yangi tahrirda bayon etilishi taklif qilingan:

“116-modda. Kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik

Shaxsning o'z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi *badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, –*

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki bir yuz yigirma soatdan ikki yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) badanga og'ir shikast yetkazilishiga;

b) boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishga sabab bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yuz soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) odam o'lishiga;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishga sabab bo'lsa, –

bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

O'sha qilmishlar:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

7. JKni yangi 116¹-modda

bilan to'ldirish taklif etilgan:

“116¹-modda. Tibbiyot xodimlarining kasb yuzasidan o'z vazifasini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik

Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi yoki lozim darajada yordam ko'rsatmaganligi badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki bir yuz yigirma soatdan ikki yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) badanga og'ir shikast yetkazilishiga;

b) boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishga sabab bo'lsa, – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki ikki yuz soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) odam o'lishiga;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishga sabab bo'lsa, –

bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

8. JK 113-moddasi beshinchi qismini chiqarish.

III. Qonunni qo'llash amaliyoti va hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning oldini olishni choralarini yaxshilashga qaratilgan takliflar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu qarorda hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi jinoyat qonuni normalarini amalda qo'llash, bu turdagi jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish hamda o'xshash jinoyatlardan farqlash borasidagi tushuntirishlar berildi.

2. Fuqarolarga malakali psixologik yordam ko'rsatish tizimi takomillashtirish lozimligi asoslantirildi. Psixologlar faoliyatini samarali tashkil etish, mavjud salbiy omillarni bartaraf etish, fuqarolarning psixologik salomatligini saqlash, sifatli ma'rifiy faoliyatni yo'lga qo'yish va sohani huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar (oliy ma'lumot, malaka sertifikat), sertifikatni berish tartibi, psixologik yordam shakllari, psixologning huquq va majburiyatlari, ularning reestrini yuritishni nazarda tutuvchi tartibni joriy qilish lozim. Shuningdek, psixologik yordam ko'rsatish faoliyat turi bilan belgilangan tartibga rioya qilmagan holda shug'ullanganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq.

3. Davlat ta'lim standartlari bilan qamrab olinmaydigan, biroq insonning intellektual, ma'naviy va kasbiy rivojlanishi uchun zarur ko'nikma va malakani shakllantirishga qaratilgan turli mavzudagi seminar, kurs, ma'ruza, marafon, master-klass va boshqa shakllarda, shu jumladan onlayn olib boriladigan ma'rifiy faoliyat tushunchasini belgilashga qaratilgan qo'shimchalarni “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunga kiritish hamda ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilovchi Vazirlar Mahkamasi qarorini qabul qilish zarur. Unda ma'rifiy faoliyat shakllari, uni amalga oshirish talab va shartlari, jumladan ma'rifiy faoliyat olib boruvchida zarur ko'nikma mavjudligi, kurslarda qonunchilikda taqiqlangan harakatlar targ'ib qilinmasligi bayon qilindi.

4. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatining oldini olish

bo'yicha maxsus chora-tadbirlar doirasida *jabrlanuvchilar bilan ishlash* yo'nalishida viktim xulq-atvori bilan jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin bo'lgan jabrlanuvchilarni barvaqt aniqlash va ularni jinoyatlardan himoya qilishga qaratilgan maqsadli choralarni amalga oshirish lozimligi asoslandi.

5. *Fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan oilaviy-maishiy nizolarni hal etish* maqsadida zo'rvonlik bilan kechadigan oilaviy-maishiy nizolar ishtirokchilarini, shu jumladan, ulardan biri profilaktik hisobda tursa, ularni majburiy tartibda psixolog ko'rigiga yuborish tartibini yo'lga qo'yish lozim.

6. Murakkab ijtimoiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalarga ularning doimiy joylashuvi masalasi hal bo'lguniga qadar vaqtincha boshpana sifatida joylashtirish uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida *krizis-markazlarini tashkil etish* va ularda bolalar bilan manzilli ishlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

7. *Ijtimoiy zaif guruhdagi bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish* zarur. Xususan, ushbu yo'nalishda ijtimoiy zaif guruhdagi bolalarni barvaqt aniqlash va tahlil qilib borish orqali ular bilan "*mahallabay*" ishlash tizimini joriy etish maqsadida har bir mahalladagi xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisining bu boradagi vazifalarini aniq belgilash lozim.

8. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni *vaqtinchalik saqlash* (oilaviy bolalar uylariga joylashtirgunga yoxud farzandlikka olinguniga qadar) uchun darhol ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni *elektron reestr*ga kiritilgan oilalarga patronajga topshirish tartibini ("*fleksibl patronaj*" tizimi) joriy etish maqsadga muvofiq.

9. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining transplantatsiyasi vaqtida retsipientni va donorni sog'lig'i uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar haqidagi ogohlantirish, shuningdek transplantatsiya jarayoni videoyozuvi tibbiyot muassasasi tomonidan arxivlashtirilishi, videoyozuv aslining dublikati esa saqlash uchun ichki ishlar organlariga topshirish amaliyotini joriy qilish.

10. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

tibbiy xizmat ko'rsatishga daxldor qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda jarrohlik operatsiyalarini amalga oshirish tartibi bo'yicha maxsus qonun hujjati ishlab chiqish va qabul qilish;

sudlar tomonidan hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar bilan bog'liq jinoyat ishlar ko'rib chiqilganda mazkur jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha xususiy ajrim chiqarish amaliyotidan keng foydalanishni ta'minlash;

bemor shifokorga murojaat etgan paytdan boshlab, amalga oshirilgan davolashdan keyingi zaruriy tushuntirishlar va tavsiyalar berish, davolash jarayonini muhokama qilish amalga oshirilganini isbot qilish uchun bemorga axborot berish jarayonini hujjatlashtirish;

kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik tufayli tibbiy yordam ko'rsatishning ko'ngilsiz oqibatlari haqida ma'lumotlarning elektron bankini yaratish va amaliyotga joriy qilish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ СОВЕТА
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ

**УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
ПРЕСТУПЛЕНИЙ, ОПАСНЫХ ДЛЯ ЖИЗНИ ИЛИ ЗДОРОВЬЯ**

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право.
12.00.15 – Криминология (юридических наук)

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2022.1.DSc/Yu193.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации излагается на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Неъматов Жасур Аминжонович
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кабулов Рустам
доктор юридических наук, профессор

Тургунбоев Элбек Одилжонович
доктор юридических наук, (DSc)

Иброхимов Жамшид Абдугофур угли
доктор юридических наук, (DSc)

Ведущая организация:

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Защита диссертации состоится 6 марта 2025 года в 14:00 часов на заседании разового Научного совета DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35. Тел.: (998) 71-233-66-36; факс: (998) 71-233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована № 1358). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом - 35. Тел.: (998) 71-233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 20 февраля 2025 года.

(реестр протокола № 42 от 20 февраля 2025 года).

А.А.Отажонов

Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

М.К.Уразалиев

Научный секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

Н.С.Салаев

Председатель разового Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире защита жизни и здоровья человека с помощью уголовно-правовых средств рассматривается как один из важнейших социально-правовых вопросов. В частности, преступный аборт, распространение венерических заболеваний или ВИЧ-инфекции/СПИДа, понуждение человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации, оставление в опасности, а также ненадлежащее выполнение своих профессиональных обязанностей приводят к серьезным медицинским и правовым проблемам, и к социальной дискриминации. По данным ВОЗ (WHO), ежегодно производится более 73 млн. незаконных абортов, 45% из которых сопровождаются различными инфекциями и кровотечениями вследствие проведения их в антисанитарных условиях. Такие опасные аборты составляют от 4,7 до 13% и является причиной материнской смертности¹. 70% случаев заражения ВИЧ/СПИДом приходится на долю подростков². Данные ситуации увеличивают нагрузку на медицинскую службу, что приводит к ограничению медицинских ресурсов, риску эпидемии или пандемии и, в конечном итоге, к демографическому кризису. В связи с этим возникает необходимость предотвращения подобных правонарушений, повышения медицинской культуры среди населения и защиты прав лиц, живущих с ВИЧ/СПИДом, а также совершенствования правоприменительной практики и законодательных актов направленных на охрану жизни и здоровья человека.

В мире особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на защиту жизни и здоровья человека, гарантирование его прав на репродуктивное здоровье, предотвращение распространения различных инфекционных заболеваний, расширение масштабов и охвата квалифицированной медицинской помощи. В частности, в развивающихся странах достигнуты определенные результаты по снижению влияния преступлений, опасных для жизни или здоровья на социальную стабильность и криминогенную ситуацию, изучению ущерба, наносимого данным видом преступлений мировой экономике, и внедрению современных мер по борьбе с ними. Тем не менее, необходимость исследования преступлений, опасных для жизни или здоровья, в современных условиях обусловлена резкими изменениями общественных отношений, выявления теоретических, практических и правовых проблем борьбы с данными видами преступлений, а также недостаточностью изучения мер ответственности за эти виды преступлений с уголовно-правовой и криминологической точек зрения остается актуальной.

В нашей республике борьба с преступлениями, представляющими опасность для жизни или здоровья, определена как одно из приоритетных направлений уголовно-правовой политики государстве и проводится значительная работа по совершенствованию законодательства в сфере охраны

¹ <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/abortion>

² <https://www.who.int/southeastasia/activities/adolescent-sexual-reproductive-health>

материнства и детства, обеспечению неотвратимости ответственности за преступные аборт, повышению качества медицинских услуг, внедрению системы медицинского страхования¹, а также обеспечению неотвратимости ответственности за преступления, представляющие опасность для жизни или здоровья. Организуются в регионах первичную медицинскую службу на основе принципа «шаговой доступности», криминализация принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации, совершенствование механизмов внутреннего контроля с целью сокращения коррупции в системе были определены как основные направления и задачи реформирования медицинской сферы и совершенствования уголовного законодательства. Отмеченные обстоятельства обуславливают проведенного исследования вопросов обеспечения повышения медицинской культуры, борьбы с преступлениями, представляющими опасность для жизни или здоровья, а также совершенствования практики применения уголовного законодательства в этой сфере.

Данная диссертация способствует к обеспечению исполнения в определенной степени Законах Республики Узбекистан от 29 августа 1996 года № 265-I «Об охране здоровья граждан», от 23 сентября 2013 года № ЗРУ-353 «О противодействии распространению заболевания, вызываемого вирусом иммунодефицита человека (ВИЧ-инфекция)», от 11 мая 2022 года № ЗРУ-768 «О трансплантации органов и тканей человека», в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан от 30 ноября 2017 года №УП–5268 «О дополнительных мерах по усилению гарантий прав и свобод граждан в судебной-следственной деятельности», от 14 мая 2018 года №ПП–3723 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства», от 28 января 2022 года №УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О стратегии «Узбекистан-2030», а также в иных нормативно-правовых актах касающихся данной сферы.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениями развития науки и технологий в республике. Научно-исследовательская работа диссертации выполнялась в соответствии с приоритетным направлением республиканского развития науки и техники «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократическое государство, и путей их реализации».

Комментарии научных исследований по теме диссертации².

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022—2026 годы» Национальная база данных законодательства / <https://lex.uz/docs/5841063>

² Комментарии научных исследований по данной диссертации: <https://www.indstate.edu>, <https://www.cornell.edu>, <https://www.sulc.edu>, <https://case.edu>, <https://www.law.miami.edu>, <https://nij.ojp.gov>, <https://www.ox.ac.uk>, <https://www.cam.ac.uk>, <https://www.htwk-leipzig.de/en/htwk-leipzig>, <https://css.ethz.ch/en>, <https://www.unipi.it>, <https://www.ugr.es>, <https://www.kansai-u.ac.jp>, <https://english.tau.ac.il>, <http://www.ict.org.il>, <https://www.msu.ru>, <http://www.bolashaq.edu.kz>

Научные исследования по совершенствованию действующего законодательства и правоприменительной практики по преступлениям, опасных для жизни и здоровья, проводятся в таких международных научных и образовательных учреждениях, как Управление ООН по наркотикам и преступности (UNODC), Университет Джонса Хопкинса, Северо-Западный университет, Медицинская школа Бостонского университета, Университет Миссури-Канзас-Сити, Юридическая школа Дьюка (США), Университет Кентукки (Великобритания), Тринити-колледж (Ирландия), Римский университет Сапиенца (Италия), Университет Коимбры (Португалия), Исламский университет Султана Агунга (Индонезия), Университет Джадара (Иордания), Силезский университет (Польша), Сплитский университет (Хорватия), Университет Макао (Китай), Московский государственный университет (РФ).

